

Viloyat Kengashining yigirma
oltinchi sessiyasi 5-fevral kuni
o'tkaziladi



Samarqandlik tadbirkorlar
Iroq poytaxti – Bag'dod shahrida
o'tkazilayotgan xalqaro ko'rgazmada o'z
mahsulotlari bilan ishtirok etmoqda



Shaxmatchilarimiz -
Nodirbek Abdusattorov, Javohir Sindorov
dunyoning nufuzli turnirlaridan biri "Tata
Steel Chess" g'olibi bo'ldi



Sessiyada:
- viloyat IIB boshlig'i T.Aripovning hisoboti;
- samarasiz kichik sanoat va yoshlar sanoat zonalarini tugatish;
- tanlangan mahallalarda elektr energiyasi barqaror yetkazib
berilishini yaxshilash va ichki yo'llarni ta'mirlash bo'yicha
takliflarni ko'rib chiqish kabi o'nga yaqin masala ko'rib chiqiladi.



1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

Fidoyilik –
Vatanga xizmat demak!

2026-yil 4-fevral, chorshanba,
10 (24.190)-son

O'zbek xalq
maqoli

Yotganga
yomg'ir
yog'mas

OQDARYO va PAST DARG'OMda HOKIM O'ZGARDI

3-fevral kuni xalq deputatlari Oqdaryo va Past Darg'om
tumanlari kengashlarining navbatdan tashqari sessiyalari
o'tkazildi.

Sessiyalarda viloyat hokimi
A.Boboyev, viloyat boshqarma va
idoralari rahbarlari ham ishtirok
etdi.

Oqdaryo tumani Kengashi sessiyasida A.Boboyev tumanni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasida olib borilayotgan ishlarni tanqidiy tahlil qilib, aholi turmush darajasini yaxshilash va bandligini ta'minlashda foydalanilmayotgan imkoniyatlarga e'tibor qaratdi. Mas'ul rahbarlarning bugungi kun talabiga mos va hamjihatlikda faoliyat ko'rsatmayotganini ta'kidladi.

Sessiyada tashkiliy masala ko'ril-
di. Sh.Qudratov o'z arizasiga ko'ra,
tuman hokimi vazifasidan ozod etildi.

Shu paytgacha viloyat
kambag'allikni qisqartirish va bandlik
bosh boshqarmasi boshlig'i vazifasida
faoliyat yuritgan **Mahmudov Temur
Asomiddinovich** Oqdaryo tumani
hokimi vazifasiga tasdiqlandi.



Past Darg'om tumani Kengashi sessiyasida so'zga chiqqan A.Boboyev viloyatning eng yirik tumanlaridan biri bo'lgan mazkur hudud salohiyati, iqtisodiy imkoniyatlaridan yetarli darajada foydalanilmayotganini, keyingi yillarda bir qator sohalarida muayyan natijalarga erishilgan bo'lsa-da, yechimini kutayotgan muammolar ham ko'pligini ta'kidladi. Tuman rahbarlari va faollar Past Darg'omni viloyatning eng namunali hududlaridan biriga aylantirishi zarurligini qayd etdi.

2024-yil iyun oyidan buyon tuman-
ga rahbarlik qilgan Sh.Rahmonov o'z
arizasiga ko'ra tuman hokimi lavozim-
idan ozod etildi.

Past Darg'om tumani hokimining
moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni
qisqartirish masalalari bo'yicha
birinchi o'rinbosari – iqtisodiyot va
moliya bo'limi boshlig'i vazifasida
faoliyat ko'rsatib kelayotgan
Pardayev Jamshid Arziyevich
tuman hokimi etib tasdiqlandi.



► Deputat mulohazasi

DAVRGA MUNOSIBLIK MAS'ULIYATI

Prezident Sh.Mirziyoyevning 27-yanvar kuni huquq-tartibot masalalariga bag'ishlab o'tkazgan yig'ilishidagi fikrlari ijtimoiy tarmoqlarda, ommaviy axborot vositalarida qizg'in muhokama qilinmoqda. Bu bejiz emas, negaki, davlatimiz rahbari amalga oshirilayotgan oqilona siyosatning navbatdagi vazifalarini belgilab berdi. Shuning barobarida inson erki, qadri, to'g'ri yashashi, haq-huquqi va tarbiyasi bizning mamlakatda ustuvor vazifa ekanligini alohida ta'kidladi.

To'g'ri, gap asosan huquq-tartibot idoralari faoliyati, jamoat tartibi va xavfsizlikni ta'minlash, jinoyatchilik va huquqbuzarliklarga qarshi kurashishga bag'ishlandi. Lekin muloqot davomida jamiyatni yangilash, Yangi O'zbekiston muhitini shakllantirish jamiyatimizdagi har bir siyosiy kuch va fuqaroning muqaddas burchi ekanligi aytil-
di. Shu sababli ham kami-na ushbu anjuman-
dan oladigan xulosalarimda bu tahlillar O'zbekistonda yashovchi har bir kishiga da'vat ekanligini tushunib yetdim.

(Davomi 2-sahifada) >>>

“Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili”da yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, avvalo, inson manfaati, mahalla taraqqiyoti va aholi farovonligini ta'minlashga qaratilmoqda. Bu borada viloyatimizda ham keng ko'lamli ishlarga kirishildi.

Joriy yilda infratuzilmani yaxshilash, tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va daromadlarini oshirish orqali kambag'allikni qisqartirish maqsadida viloyatimizga barcha manbalar hisobidan 15,3 trillion so'm (2025-yilga nisbatan 2,3 trillion so'm ko'p) mablag' ajratildi.

Ajratilgan ushbu mablag'lardan oqilona foydalanish bo'yicha mahallabay rejalarni tasdiqlab oldik. Endi hokim o'rinbosarlari, barcha sohaviy tashkilot rahbarlari, tuman (shahar) hokimlari hamda “mahalla yetiligi” bilan birgalikda mablag'ning har bir so'midan samarali foydalanib, barcha hududlarimizda aholi va tadbirkorlik uchun qulaylik yaratish borasida ishlarni olib boriladi.

Yaratilgan imkoniyat va sharoitlardan unumli foydalanib, yil davomida 618 ming nafar aholi bandligini ta'minlash va daromadlari oshirilishini ta'minlaymiz.

Bunda 96,7 ming nafar fuqaroning doimiy bandligi ta'minlanadi. 67,8 ming ish o'rinlari soyardan chiqariladi. Ya'ni, sanoatda 20 ming, xizmat ko'rsatishda 32 ming, qishloq xo'jaligida 6,3 ming, qurilishda 9,6 ming ta'ish o'rnini legallashtiriladi.

Yil davomida bandlik boshqarmasi (hokim yordamchilari) instrumentlari hisobiga 94,3 ming, iqtisodiyot va moliya boshqarmasi (tadbirkorlik infratuzilmasini yaxshilash hisobiga) 63,2 ming, markaziy bank (tadbirkorlik uchun kreditlar hisobiga) 99 ming, qishloq xo'jaligi (agrotexnik tadbirlarda masumiy) 98,8 ming, ijtimoiy himoya (nogironlar bandligini ta'minlash) 4,3 ming, yengil sanoat (pillachilikda) 83,8 ming va xotin-qizlarga berilgan imtiyozlar doirasida 10,6 ming fuqaroning daromadi oshiriladi.

Viloyat bo'yicha 108,6 ming kambag'al aholi (28 ming oila)ga 170,4 ming barqaror bandlik xizmatlari ko'rsatiladi. Bunda 50,6 ming aholi barqaror bandlik yo'nalishida, 69,9 ming nafariga turli ijtimoiy xizmatlar, 49,2 ming nafariga boshqa xizmatlar ko'rsatiladi.

Joriy yil yakuni bilan kambag'allik darajasini 2 foizgacha (tabiiy daraja), ishsizlik darajasini 3,2 foizga tushirib, Samarqand shahri, Kattaqo'rg'on, Ishtixon, Bulung'ur, Payariq, Toyloq va Samarqand tumanlari “kambag'allikdan xoli” tumanlarga aylantiriladi.

Shu bilan birga, “ishsizlik va kambag'allikdan xoli mahalla”lar 90 tadan (8,5 foiz) 395 taga (37 foiz) yetkaziladi.

Shu yil 130 ta mahallani chuqur ixtisoslashtirib, ular sonini 627 taga yoki 59 foizga yetkazish maqsad qilingan. Buning uchun fuqarolarga berilayotgan moliyaviy instrumentlarning (ssuda, subsidiya, kredit) aksariyati ixtisoslashgan mahallalarga yo'naltiriladi.

Amaldagi tartibga ko'ra, kambag'allik jamg'armasidan aholiga urug'lik va ko'chatlar sotib olish hamda zarur asbob-uskunalar uchun subsidiya va ssudalar faqatgina “Kambag'allik va ishsizlik reestri”dagi fuqarolarga berilishi ko'zda tutilgan.

Misol uchun, Jomboydagi Nayman mahallasida bugungi kunda 1090 ta xonadonning 567 tasi yoki 52 foizi malinchilikdan daromad topyapti. 2025-yilda 34 gektar yerda 500 tonnadan ortiq malina yetishtirilib, mahalliy bozorlarga yetkazildi. Malina yetishtirayotganlarning yillik daromadi 20 milliard so'm (bitta xonadon o'rta 45-50 million so'm)ni tashkil etdi.



Aholi bandligini ta'minlashda

Samarqandning o'z tajribasi bo'ladi

Ko'plab fuqarolar ijtimoiy reestrga kiritilmaganligi sababli malinchilikni tashkil qilish uchun urug'lik va ko'chatlarni, zarur asbob-uskunalarini olishda amaldagi ssuda va subsidiyalardan foydalana olmayapti, kredit oladigan bo'lsa, ekanligi ko'chatlar hosilga kulgunga qadar kreditni to'lashda qiyinchiliklarga duch kelyapti.

“Bir mahalla-bir mahsulot tamoyili” asosida butun mahalla aholisi bitta mahsulotni yetishtiradigan yoki ishlab chiqaradigan bo'lsa “mahalla yetiligi” tavsiyasi asosida barcha toifadagi fuqarolarga (reestrdan turmasa ham) ssuda va subsidiyalarni ajratishga ruxsat berish metodini qo'llash choralari ko'rilmoqda.

Bundan tashqari, viloyatimiz parrandachilik sohasida respublikada yetakchi o'rinda turadi. Kambag'al oilalarni daromadli qilish uchun tez daromad topadigan yo'nalish sifatida ushbu soha muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Lekin ayrim oilalarda parrandani parvarishlash bo'yicha yetarli tajriba yo'qligi sababli jo'jalar nobud bo'lmoqda yoki tayyor mahsulotni sotishda muammolarga duch kelmoqda. Buning oqibatida olingan kreditlarni to'lay olmasdan ishi orqaga ketib, to'xtab qolyapti.

Shuning uchun parrandalarni kambag'al oilaga kooperatsiya usulida tarqatib, shu orqali daromad topishda yordam berish taklif qilinmoqda. Ya'ni, kambag'allikni qisqartirish jamg'armasidan berilayotgan ssuda mablag'larini har bir kambag'al oila uchun ba'zaviy hisoblash miqdorining 100 barobarigacha (40 million so'm) 3 yil muddatga parrandachilik klaster korxonalariga berish bo'yicha yangi metodni joriy etish maqsadga muvofiq. Shunda olingan mablag'ini kambag'al oila emas, ssuda olgan klaster qaytaradi.

Misol uchun, viloyatdagi “Navobod naslli parranda” klasteri oyiga 2 million donadan ortiq naslli jo'ja yetishtirib, 300 nafardan ortiq aholini shu ish bilan band qilgan.

Shu paytgacha Qo'shrabot, Past Darg'om, Payariq, Urgut, Bulung'ur, Jomboy, Samarqand, Kattaqo'rg'on tumanlari hamda Sirdaryo va Toshkent viloyatlaridagi kambag'al oilalarga tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish uchun go'sht yo'nalishida broyler jo'jalarni kooperatsiya usulida tarqatib, tayyor mahsulotni o'zi qayta sotib olish

tizimini yo'lga qo'ygan. Muhimi, bu tizim o'zining ijobiy natijasini beryapti.

Tahlillarga ko'ra, 1 bosh jo'janing narxi 9 ming so'm, ozuqasi 27 ming so'm, boshqa xarajatlar 4 ming so'm, jami tannarx 40 ming so'm bo'ladi. 1 kvadrat metrda 12 dona tovuq boqish mumkin, 1000 ta tovuq boqish uchun 83 kvadrat metr tovuqxona zarur bo'ladi (taxminan 5x16 metrli xona). Shuncha jo'jani go'sht yo'nalishida yetishtirish uchun 40 kun vaqt hamda o'rta 40 million so'm xarajat ketadi. Bitta tovuq o'rta og'irligi (tirik vazn) 3-4 kilogramni tashkil etib, narxi (tirik vaznda) 50-55 ming so'm bo'ladi.

Demak, qirg'unda yetishtirilgan 1 bosh tovuqdan qoladigan o'rta 13 ming so'mni, 1000 tasidan 13 million so'mni tashkil qiladi. Bir yilda kambag'al oila shu sohadan 120 million so'mgacha daromad olish imkoniyati bor.

Amaldagi holatga ko'ra, oliy o'quv yurtlari va ishlab chiqarish korxonalari o'rtasida kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha o'zaro aloqalar o'rnatilmagan. Shuning uchun ko'plab korxonalar mutaxassislarni nazariyasiz, amaliyotsiz, shuncha-ki birlamchi ishlarga 1-2 oy o'rgatib ishga olyapti. Koreya, Yaponiya davlatlari tajribasiga ko'ra, ta'lim va ishlab chiqarish uyg'unligi tizimli yo'lga qo'yilgan. Bunda, universitet va kollejlarda ish beruvchilar bilan yaqin hamkorlik qiladi. Bitiruvchilarni aynan hamkorlik qilgan (buyurtma bergan) korxonalar ishga oladi. Ish beruvchilar xodimlarni ish jarayonida doimiy o'qitib boradi. Shu metodikani amaliyotda qo'llashni boshlasak, har bir bitiruvchini aniq ish joyi, kerak bo'lsa, lavozimi va oylik maoshi ham aniq bo'ladi. Shuningdek, oliy o'quv yurtlaridagi fanlar ishlab chiqarish bilan bevosita bog'lab o'qitiladi. Eng muhimi, yoshlar orasida bugungi kunda talab yuqori bo'lgan sohalar -agronom, veterinar, injener, arxitektor, dizayner, texnik, santexnik kabi sohalar qiziqish ortadi.

Muxtasar qilib aytganda, amalga oshirilayotgan ishlarni viloyatimizni iqtisodiy jihatdan rivojlantirish barobarida inson qadriini ulug'lash, aholi farovonligini oshirish va mahallalarimizning yangi qiyofasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Sherbek BO'RONOV,
viloyat hokimining birinchi o'rinbosari.

DAVRGA MUNOSIBLIK MAS'ULIYATI

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

Keyingi yillarda amalga oshirilgan islohotlar natijasida ichki ishlar tizimi ancha o'zgardi. Muhimi, soha malakali mutaxassislar bilan to'ldirilyapti. Bu tizim faoliyati mahallalargacha yetib bordi. Lekin globallashuv jarayoni, dunyodagi notinchlik sababli tizim faoliyati bundanda yaxshiroq ishlashini davrning o'zi taqozo etmoqda. Ayniqsa, dunyoga darvozamizni ochganimizdan keyin keluvchi mehmon ham, sayohatga chiqayotgan yurtdoshimiz ham atrofni ko'rib o'zining fikrini, xulosasini o'zgartiradi. Ana shunday jarayonda hushyorlikni oshirish, inson qadrini ulug'lash nafaqat huquq-tartibot idoralari, balki davlat idoralari oldiga ham jiddiy vazifa qilib qo'yildi.

Ichki ishlar organlarida davlat xaridlarida yo'l qo'yilgan o'zlashtirishlar, tergov jarayonidagi xatolar aholi bilan ishlashdagi mas'uliyatsizliklar jiddiy tahlil qilindi. Xususan, so'nggi yillarda davlat boshqaruvi organlarida ochiqlik va shaffoflik siyosati o'z natijasini berayotgani, lekin bu jarayon huquq-tartibot idoralarining ishiga sekin kirib qolayotgani, ularning faoliyatini tashqaridan xolis o'rganilmayotgani qayd etildi. Zero, bu idoralarning yopiq holatda ishlashi ularning o'zlariga ham, jamoatchilikka ham foyda keltirmasligi, sohada jiddiy o'zgarish va rivojlanish bo'lmasligi aytiladi. Xususan, jamoatchilik, ayniqsa ommaviy axborot vositalari xodimlari tomonidan u yoki bu jinoyat haqida ma'lumot olish, uni tahlil etish, jamiyatni qaysidir ma'noda ogohlantirish go'yoki ularning ishlarini bekorga chiqarishga urinishday qabul qilinadi.

Ayniqsa, tergovdagi adolatsizliklar har qanday kishining ham davlat siyosatiga bo'lgan ishonchini so'ndirishi ta'kidlandi. Jabrlanuvchi yoki o'qiz inson hayotiga e'tiborsizlik uni jamiyatdan ajratib qo'yadi. Eng yomon, jamiyatga juda katta xavf solayotgan giyohvandlik, narkotrafik va kiberjinoiyatlarga qarshi kurashishdagi xatolar va ularning ayanchli oqibatlar har birimizni sergak torttiradi.

Yig'ilishda huquq-tartibot, adliya, davlat idoralari, mahalla jamoatchiligi sha'niga aytilgan tanqidiy fikrlar to'la asosga ega. Chunki davlat rahbarining tashabbusi bilan 7-8 yil ichida har bir insonni e'tibor bilan qurshab olish tizimi yaratildi. Bolalar bog'chalari va maktablarning ko'payishi, ish haqining oshirishi, tibbiyot tizimida sug'urtalash faoliyatining yo'lga qo'yilishi har bir fuqaroning jamiyatda to'laqonli bo'lishiga xizmat qiladi. Endigi maqsad aynan ana shu tizimning bugungi talab darajasida faoliyat ko'rsatishini ta'minlashdan iboratdir.

Inson qahatchilikka chidaydi, ammo adolatsizlikka toqat qilolmaydi. Bundan tashqari, o'zgarayotgan zamonda yovuz kuchlarning yetti iqlimga bab-baravar tarqalishi farandalarimizni, eng avvalo o'zimizni ular tarqatayotgan yovuzliklardan himoya qilishga chorlaydi. Buning uchun esa har bir yurtdoshimizda o'z taqdiriga mas'uliyat, ertasiga ishonch tuyg'usini shakllantirish zarur. Ana shunday qilinsa, har qanday holatda ham kishi o'zligini unutmaydi.

Yaqinda ijtimoiy tarmoqlarda tanikli yozuvchi Chingiz Aytmatov sha'niga nojoiz bir axborot tarqaldi. Yovuz niyatli kishilardan biri qirg'izistonlik, aslida esa

xalqaro miqyosdagi buyuk adibni xudosizlikda ayblayapti. Vaholanki, Chingiz og'a butun ongli umri davomida o'z ijodi bilan insoniyatni komillikka, ma'rifatga, muhabbatga chorlab o'tdi. Tabiiyki, ana shunday noxush holatlar bizning jamiyatda ham goh-goh bo'lsa-da uchrab turibdi. Umuman, bunday radikal munosabatlar el tanigan insonlarga, millatning ulug' ziyolilariga nisbatan puxta o'ylangan holda amalga oshirilayotgani sir emas.

Ayniqsa, xorijsa ketgan yurtdoshlarimizning ayrimlari irodasi bo'shligidan, o'sha mintaqalardagi turli nomaqbul guruhlar ta'siriga berilib ketmoqdalar. Shu bois ham davlatimiz rahbari o'z nutqida «qaytaruv guruhlari» nihoyatda zarur ekanligini ta'kidladi.

Albatta, inson hayoti davomida xatolarga yo'l qo'yadi, adashadi. Ana shunday paytda tegishli idoralar bunday shaxslarni to'g'ri yo'lga boshqarish choralarini ko'rishlari zarur. Chunki yoshlar ongini zaharlayotgan g'oyalar ta'siriga tushganlarning muammolarini faqat jazo yoki taqib bilan hal qilib bo'lmaydi. Binobarin, davlatimiz rahbari «qaytaruv guruhlari»ga O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi, Toshkent islom universiteti, «Ko'kaldosh» o'rta maxsus bilim yurti, O'zbekiston Milliy universiteti singari muassasalar yetuk mutaxassislari jalb qilinishini aytdi.

Selektor yig'ilishida yana bir dolzarb muammo – korruptsiya va unga qarshi kurash masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Prezident soliq xizmatidagi kechirilmas holatlarni, kamchiliklarni misollar bilan tahlil qildi. Jumladan, soliq to'lovchilar va soliqqa tortilishi kerak bo'lgan ishbilarmonlar bilan muloqotlar nomigagina o'tkaziladi. Kassa apparatining ishlamasligidan ko'z yumiladi. Bundan tashqari budget mablag'larni o'zlashtirish holatlariga qarshi keskin kurashilmayapti, ulardan ko'z yumilyapti. Bu esa o'z navbatida soliq to'lashdagi adolatsizlikdan, odamlarning norizo bo'lishiga olib kelyapti.

“Bunday hollarga chek qo'yish payti keldi va buning imkoniyati ham bor” dedi Prezident. Binobarin kompleks tizimi yo'lga qo'yilganligi natijasida byudjet mablag'lari aylanmasini nazorat qilish tizimi kuchaydi. Shu o'rinda davlat rahbari budget mablag'laridan samarali foydalanilishini ta'minlash uchun jamoatchilik, xususan, mahalliy kengashlar deputatlari faolligi zarurligini ta'kidladi. Soliq xizmatidagi, davlat aktivlarini boshqarish sohasidagi mas'uliyatsizlik va korruption faoliyat uchun bu tizimlardagi rahbarlarning ishdan olinishi va adolatning qaror topishi ijtimoiy muhitni yaxshilash borasidagi katta harakatning boshlanishidir. Har bir soha rahbari kechagi yig'ilishdan saboq olishi, xulosa chiqarib, o'z tizimida ishni oqilona yo'lga qo'yishi, aholi murojaatlari bilan jiddiyroq ishlashi, mavjud kamchiliklarni bartaraf etishga kirishishi zarur.

O'zbekiston xalqaro maydonda katta nufuzga ega bo'ldi. Iqtisodiyotimizda ham ko'zga ko'rinarli yutuqlar bor. Lekin zamonda kechayotgan bugungi jarayon har bir fuqaroning o'z Vatani taqdiri uchun jonkuyarlik ko'rsatishini taqozo etmoqda. Bu jonkuyarlik aslida bilimga intilish, kasbni mukammal egalash, ajdodlar sha'nini ulug'lash, jamiyatga foyda keltirish xislatlari bilan bog'liqdir.

Farmon TOSHEV,
xalq deputatlari viloyat Kengashi deputati.
O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist.

Yurtimizda 2024-yil noyabr oyidan buyon “O'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo'lgan huquqlarni e'tirof etish to'g'risida”gi Qonun asosida yalpi xatlov ishlari amalga oshirilmoqda.

Jumladan, viloyatimizda joriy yil 1-yanvar holatida 179 ta mahalladagi 96081 ta ko'chmas mulk obyekti xatlovdan o'tkazilgan va xalq deputatlari viloyat Kengashi tomonidan 4 ming 696 nafar fuqaroning o'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkasiga bo'lgan ijara huquqi hamda ularda qurilgan bino va inshootga bo'lgan mulk huquqi e'tirof etildi. Xalq deputatlari viloyat Kengashining navbatdagi sessiyasida yana 1500 nafar fuqaroning huquqlarini e'tirof etish to'g'risida qaror qabul qilindi. E'tirof etilgan yer uchastkalari va uy-joylar belgilangan tartibda kadastridorasidan davlat ro'yxatidan o'tkazilmoqda.

– Xatlov jarayonlari besh bosqichdan iborat ketma-ketlikda amalga oshirilmoqda, – **deydi Davlat kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasi boshlig'i Ravshan Hotamov.** – Avvalo, mahalla chegarasi va inventarizatsiya hududi chegarasi yaratilib, ikkinchi bosqichda ko'chmas mulklar inventarizatsiyadan o'tkazilmoqda. So'ngra ko'chmas mulklarni migratsiya tizimi orqali UZKAD axborot tizimiga olib o'tish, mazkur tizimda elektron yig'majild shakllantirish hamda beshinchi bosqichda to'plangan ma'lumotlar “E'tirof” axborot tizimiga kiritilmoqda. Bu ishlarni bajarishga boshqarmamiz va tuman (shahar) filiallarimizdagi 300 nafardan ortiq xodim, jumladan, 237 nafar kadastr muhandislari safarbar qilingan. Mutaxassislarimiz tomonidan joriy yil 20-yanvar holatiga viloyatdagi 186 ta mahallada 158 ming 683 ta ko'chmas mulk obyekti xatlov yo'li bilan texnik inventarizatsiyadan o'tkazilib, elektron xaritalari yaratildi. 67 ming 644 ta obyektlar UZKAD axborot tizimida elektron yig'majild shakllantirish uchun migratsiya qilinib, 47 ming 892 tasi faollashtirildi hamda 47 ming 892 ta obyektlar haqidagi ma'lumotlar “ETIROF” axborot tizimiga kiritilib, tashkilotlar muhokamasiga yuborildi. Bu ma'lumotlarning vakolatli tashkilotlar tomonidan ko'rib chiqilishi holatiga qaraydigan bo'lsak, ayni paytda 3 ming 844 tasi e'londa, 31 ming 207 tasi muhokama jarayonida turibdi. 1 ming 259 ta obyektlar rad etilgan bo'lsa, 789 tasi tahrirlashda, 2 ming 722 tasining to'lovi kutilmoqda. 1 ming 277 tasi qaror qabul qilish holatida turibdi. Qonunning 17-moddasiga asosan huquqlarni e'tirof etish tizimida to'liq shakllantirilgan elektron yig'majild ma'lumotlari xatlov o'tkazilgan barcha mahalla binolarida o'rnatilib, jamoatchilikka e'lon qilib borilmoqda.

Ta'kidlash lozimki, o'tgan davr mobaynida xatlov jarayonida ish hajmining kattaligi va belgilangan muddatning qisqaligi, ma'lumotlar o'rtasidagi nomutanosibliklar, texnik vositalar yetarlicha emasligi kabi muammolar kuzatildi. Bu masalalar o'tgan yil xalq deputatlari viloyat Kengashi sessiyalarida bir necha bor muhokama etildi va uning natijalari bo'yicha tegishli organlarga murojaat qilindi.

– Ish hajmining kattaligi va qisqa muddatlar bilan bog'liq muammolarni kamaytirish maqsadida qo'shimcha shtat birliklari joriy

O‘ZBOSHIMCHALIK BILAN egallab olingan yerlar bo‘yicha xatlov jarayoni jadallashadi



etildi hamda xodimlar o'rtasida ish hajmi qayta taqsimlandi, xatlov ishlari hududlar kesimida bosqichma-bosqich tashkil etilmoqda, – **deydi Ravshan Hotamov.** – Ma'lumotlar o'rtasidagi nomutanosibliklarni bartaraf etish uchun manzillar tizimi, kadastr va boshqa davlat axborot bazalarini o'zaro integratsiya qilish ishlari kuchaytirildi, ma'lumotlarni solishtirish va yangilash jarayonlari tizimli yo'lga qo'yildi. Kadastr bo'limlari zamonaviy, yuqori parametrlarga ega kompyuter texnikasi hamda sohaga oid kartografik va geoaxborot dasturiy ta'minotlar bilan bosqichma-bosqich ta'minlanmoqda. Xatlovda aholining faol ishtirokini va xodimlarimiz xonadonga bir marta borgandayoq tegishli hujjatlar taqdim etilishini ta'minlash maqsadida jarayon davom etayotgan mahallalarda fuqarolar o'rtasida tushuntirish ishlari kuchaytirildi. Ish hajmining ortib borishi hisobga olinib, boshqarmaning shtat birliklari qayta ko'rib chiqildi va umumiy shtatlar soni 548 tadan 582 taga oshirildi. Geografik obyektlarni nomlash hamda manzillar tizimini yuritish bo'yicha alohida shu'ba tashkil etildi. Shuningdek, har bir tuman va shahar filialiga manzillar tizimi bo'yicha mutaxassis lavozimi joriy qilindi. Yangi ishga qabul qilingan xodimlarning malaka va tajribasini oshirish uchun qisqa muddatli o'quv kurslari, amaliy treninglar o'tkazilmoqda, ular “ustoz-shogird” tizimi asosida tajribali mutaxassislarga biriktirilmoqda. Samarqand shahar filialida esa xatlov ishlarining katta hajmini inobatga olgan holda kadastr muhandislari, elektron xarita muhandislari hamda topograflar soni qo'shimcha ravishda oshirildi. Bu esa amalda xatlov ishlarini tezkor va sifatli tashkil etish imkonini bermoqda.

Xatlov jarayonida shu paytgacha kuzatilgan muammo va kamchiliklar, qonunchilikdagi bo'shliqlarni bartaraf etish va ish suratini tezlashtirish maqsadida Adliya vazirligi tomonidan “O'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo'lgan huquqlarni e'tirof etish to'g'risida”gi Qonunga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yuzasidan qonun loyihasi ishlab chiqib, ayni paytda parlamentda ko'rilmogda.

– Qonunga kiritilayotgan eng katta o'zgartirishlardan biri obyektlar bo'yicha yakuniy xulosa berish muddatining 150 kundan 50 kunga qisqartirilayotgani, – **deydi viloyat**

adliya boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari Ozodjon Shodiqulov. – Bunda taqdim etilgan hujjatlarning vakolatli tashkilotlar, adliya organlari tomonidan ko'rib chiqish muddatlari kamida ikki barobarga qisqarib, 20 kunni, jamoatchilik muhokamasi esa amaldagi bir oy muddatdan 10 kunni tashkil etishi kutilmoqda. Shuningdek, soliq qarzi bazaviy vaksoblash miqori (BHM)ning 30 baravari, ya'ni ayni kunda bu 12 million 3 ming so'mdan oshmasa, huquq e'tirof etilishi mumkin bo'ladi. Huquqni e'tirof etish uchun bir martalik to'lov 20 ish kunida amalga oshirilsa 50 foiz chegirma berish taklif etilyapti. Bundan tashqari, to'lovni 1 yildan 3 yilgacha bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyati yaratiladi. Yana bir masala – huquqni e'tirof etish yuzasidan vakolatli organlar xulosa berish muddatiga rioya qilmasa, bu – davlat xizmati ko'rsatish muddatini buzish deb hisoblanadi va bunday holat uchun ma'muriy javobgarlik chorasi ko'rishga sabab bo'ladi. Bu kabi o'zgarishlar o'zboshimchalik bilan egallangan yer uchastkalarida va ularda qurilgan uy-joylarga bo'lgan huquqni e'tirof etish jarayonlarini tezlashtiradi va o'z navbatida kadastr idorasi tomonidan ko'chmas mulkni davlat ro'yxatidan o'z vaqtida o'tkazish imkoniyatlarini kengaytiradi. Agar bu loyiha takliflari tasdiqlanib, qonunchilikka o'zgartirishlar kiritilsa, viloyatimizda o'tgan yil davomida amalga oshirilgan xatlov ishlarini birinchi chorakning o'zida bajarish va yil davomida kamida 30 ming fuqaroning ijara va mulk huquqni e'tirof etish ko'zda tutilgan.

Kadastr agentligi tomonidan tasdiqlangan xatlov reja-grafigiga ko'ra, 2026-yilda viloyatimizdagi 231 ta mahallada xatlov ishlari amalga oshirish belgilangan. Ammo qonunchilikka kiritilishi kutilayotgan o'zgartirishlar hamda viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha “metodik hudud”ga aylantirish yuzasidan ko'rilyotgan chora-tadbirlar natijasida bu yil xatlov o'tkaziladigan mahallalar sonini 441 ta etib belgilash borasida ham ishlar olib borilmoqda. Bu natijaga erishish uchun tegishli vazirlik va idoralarga takliflar berilgan, amaliy choralar ko'rilmogda. Ana shunda 2027-yilda viloyatning qolgan 441 ta mahallasida ham xatlov jarayonlarini tashkil etib, qonun amal qiladigan muddatda ishlarni yakuniga yetkazish rejalashtirilmoqda.

G'olib HASANOV.

Aholi bilan

Samarqand davlat tibbiyot universiteti professor-o'qituvchilari tomonidan takomillashtirilayotgan “O'zbekiston – 2030” strategiyasining mazmun-mohiyatini aholi o'rtasida keng targ'ib etish maqsadida Samarqand shahridagi Nurliyo'l mahallasida targ'ibot tadbiri o'tkazildi.



Uchrashuvda aholi salomatligini mustahkamlash, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ta'lim va tibbiyot sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar, yoshlar tarbiyasi hamda ma'naviy barkamollikni yuksaltirish masalalari yuzasidan atroflicha ma'lumotlar berildi.

Bu kabi tadbirlar yurtdoshlarimizning mamlakatimizda kechayotgan islohotlar jarayonlari haqidagi bilim va tushunchasini boyitish bilan birga tibbiy madaniyatini oshirishga xizmat qilayotgani bilan ahamiyatlidir.

Baxtiyor QIYOMOV,
Samarqand davlat tibbiyot universiteti o'qituvchisi.





Банкда коррупцияга йўл қўйилмаслиги шарт!

Бу каби сўзлар Марказий банк ташаббуси билан “Манфаатлар тўқнашуви тўғрисида”ги Қонуннинг мазмун-моҳияти ва аҳамияти мавзусида бўлиб ўтган семинар-тренингда айtilди. Унда Марказий банкнинг ҳудудий бош бошқармаси ҳамда ҳудудий тижорат банклари масъул ходимлари қатнашди.

Мазкур тадбирда ички ишлар ва прокуратура органлари масъуллари ҳам иштирок этиб, асосий эътибор банк ходими ва мижозлар ўртасида келиб чиқиши мумкин бўлган коррупцион ҳолатлар ва унинг олдини олишга қаратилди. Айниқса, кредит расмийлаштиришда бу каби ҳолатларга тушиб қолмаслик тушунтириб ўтилди.

Хусусан, қонуннинг 4-моддасида келтирилган қонунийликни, фуқароларнинг, ташкилотларнинг, жамият ва давлатнинг қонуний манфаатлари устуворлигини таъминлаш, очиклик ва шаффофлик, ҳолислик, коррупцияга нисбатан муросасизликда иш тутиш зарурлиги таъкидланди.

Семинар барчамиз учун манфаатли бўлди, билганларимизни мустаҳкамладик, янги билимларга эга бўлдик, – дейди “INFINBANK” АЖ Самарқанд вилоят бўлими якуний назорат бўлими бошлиғи Абдор Шерматов. – Ўтган давр мобайнида банкимиз ходимлари ва мижозлари ўртасида манфаатлар тўқнашуви кузатилмади. Бу албатта, банкимиз ходимлари ўртасида доимий ўтказилиб келинаётган тарғибот тадбирлари натижасидир.



Xizmatlar litsenziyalangan.

DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasida marhum Xasanov Rabimga (2024-yil 4-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Nodirabegim ko'chasi, 5/1-uy. ***

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasida marhum Djurabayaeva Istatga (1998-yil 7-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko'chasi, 121-uy. ***

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasida marhum Ochilov Erkinga (2018-yil 30-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy. ***

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Shomurodov Anvar Salimovich notarial idorasida marhum Mirzayeva Tufaga (2025-yil 8-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Shomurodov Anvar Salimovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumani O'rta shahri mahallasi. ***

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasida marhum Janikulov Siroj To'irovichga (2024-yil 4-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Zebuniso ko'chasi, 4-"A" uy. ***

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ortigboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Kushmurodov

Muzafar Toshmurodovichga (2013-yil 23-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ortigboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy. ***

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ortigboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Zoirov Ibragim Musirovichga (2019-yil 3-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ortigboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy. ***

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Murtazayev Ulug'bek Rabbimovich notarial idorasida marhum Foteyev Mirzo Foteyevichga (2025-yil 4-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Murtazayev Ulug'bek Rabbimovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Orzu Mahmudov ko'chasi, 12-uy. ***

Past Darg'om tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ahatov O'lmas To'rayevich notarial idorasida marhum Suvanov Abdilalim Abdilaitovichga (2025-yil 26-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ahatov O'lmas To'rayevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Past Darg'om tumani Juma shaharchasi, Nodirabegim ko'chasi, 26-uy. ***

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Davronov Mahmud Hasan o'g'li notarial idorasida marhum Mardonkulov Jamshegda (2024-yil 27-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Davronov Mahmud Hasan o'g'li notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumani Oqmachit mahallasi, Bag'rikenglik ko'chasi, 4-uy. ***

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Xo'jamqulov Husan O'rinboyevich notarial idorasida marhum Sharopov Shamsiga (1989-yil 22-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xo'jamqulov Husan O'rinboyevich

TANLOVDA QATNASHING!

MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI SAMARQAND FILIALI QUIYIDAGI KAFEDRALAR BO'YICHA BO'SH LAVOZIMLARGA TANLOV E'LOV QILADI:

I. KOMPYUTER INJINIRINGI FAKULTETI BO'YICHA:

1. Axborot texnologiyalari kafedrasiga:

- katta o'qituvchi – 1 o'rin.

2. Kompyuter tizimlari kafedrasiga:

- dotsent – 1 o'rin.

3. Tabiiy fanlar kafedrasiga:

- professor – 1 o'rin;

- dotsent – 1 o'rin.

4. Gumanitar va ijtimoiy fanlar kafedrasiga:

- assistent – 1 o'rin.



II. TELEKOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI VA KASB TA'LIMI FAKULTETI BO'YICHA:

1. Raqamli va ta'lim texnologiyalari kafedrasiga:

- dotsent – 1 o'rin;

- katta o'qituvchi – 1 o'rin.

2. Telekommunikatsiya injiniringi kafedrasiga:

- katta o'qituvchi – 1 o'rin.

3. Tillar kafedrasiga:

- dotsent – 1 o'rin.

- filial direktori nomiga ariza;

- xodimlar hisobi bo'yicha shaxsiy varaqa;

- oliy ma'lumoti, ilmiy darajasi haqidagi diplomlarning nusxalari;

- ilmiy unvoni haqidagi attestatning nusxasi;

- ilmiy va uslubiy ishlar ro'yxati.

Manzil: Samarqand shahri, Ibn Sino ko'chasi, 2-uy.

Murojaat uchun telefonlar:

+99866-232-29-29,

+99866-232-20-37.

Tanlovda qatnashish uchun quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

OCHIQ MA'RUZA O'TKAZILADI!

SamDTU xalqaro ta'lim fakultetining nevrologiya kafedrasida hamda boshqaruv va menenjment fakulteti normal anatomiya kafedralari 2026-yil 16-fevral kuni soat 09:00 da nevrologiya fanidan davolash fakultetining 5-kurs talabalari uchun ochiq ma'ruza o'tkazadi.

Mavzu: Ekstrapiramidal sistema, miyacha anatomik tuzilishi, zararlanish alomatlari.

Ma'ruzachilar: t.f.d., dotsent Niyozov Sh.T., t.f.d., dotsent Kamalova M.I.

Manzil: SamDTU ko'p tarmoqli klinikasi nevrologiya kafedrasida ma'ruzalar zali.

Taklif qilinganlar: Davolash fakultetining 5-kurs talabalari, kafedra assistentlari, bo'lim vrachlari, klinik ordinatorlar, magistrlar, talabalar ilmiy jamiyatiga a'zo talabalar, o'quv bo'limi va barcha qiziquvchilar.

Kafedra mudiri: T.f.d., professor Djurabekova A.T.

“SIYOB DEHQON BOZORI” MCHJ TA'SISCHILARI DIQQATIGA!

“Siyob dehqon bozori” MCHJ ma'muriyati binosida 2026-yil 10-fevral kuni soat 10:00 da jamiyat ta'sischilarining navbatdagi yig'ilishi o'tkaziladi.

Yig'ilish kun tartibida:

- Jamiyat direktorining 2025-yilgi hisoboti;
- “Siyob dehqon bozori” MCHJ kuzatuv kengashining 2025-yilgi hisoboti;
- Jamiyat taftish komissiyasi hisoboti;
- 2025-yil yakunlari bo'yicha balans va moliyaviy natijalarni tasdiqlash;
- Jamiyatning 2025-yil yakuni bilan auditorlik tekshiruv o'tkazish uchun auditorlik tashkilotini aniqlash va unga to'lanadigan haq miqdorini belgilash;
- Jamiyatning 2026-yilga mo'ljallangan biznes rejasini tasdiqlash;
- “Siyob dehqon bozori” MCHJ shtatlar jadvalini tasdiqlash;
- “Siyob dehqon bozori” MCHJ kuzatuv kengashi a'zolarini saylash;

- “Siyob dehqon bozori” MCHJ taftish komissiyasini saylash;
- Jamiyat avtoturargohlarini “Ishonchli boshqaruv” shaklida ijaraga berish;
- Maydoni 2 000 kv.m. bo'lgan sabzavot va meva pavilionlari tom qismi qoplamasini joriy ta'mirlash;
- Maydoni 4 000 kv.m. bo'lgan quruq meva, milliy hunarmandchilik va ziravor mahsulotlar pavilionlari tom qismini ta'mirlash;
- Sut mahsulotlari pavilioni va do'konlar tom qismini ta'mirlash;
- Boshqa masalalar.

Manzil: Samarqand shahri Bibixonim (8-mart) ko'chasi, 8-uy.

Murojaat uchun telefon: +99894-257-00-11.

“Siyob dehqon bozori” MCHJ ma'muriyati.

notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 152-uy. ***

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasida marhum Qaxorov Omonboyga (2021-yil 29-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy. ***

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Zikirova Shahlo Habibovna notarial idorasida marhum Vakilov Xalilga (2005-yil 3-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Zikirova Shahlo Habibovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 156-uy. ***

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Bobomurodov Pirmamat Isomiddinovich notarial idorasida marhum Kamilov Axtamga (2025-yil 18-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan mer-

osxo'rlarning Bobomurodov Pirmamat Isomiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko'chasi, 12-uy. ***

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasida marhum Almishov Toshmamat G'aybulayevichga (2024-yil 15-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy. ***

BEKOR QILINADI

Sotuvchi Xudoyarov Shoibrahim Nabiyevich va sotib oluvchi Muxtarov Murod Abdugafarovichlar o'rtasida Samarqand shahri Mash'al MFY, Sug'diyona maskani 7-“A” uy manzilida joylashgan umumiy maydoni 93,44 kv.m, foydali (ichki) maydoni 70,58 kv.m bo'lgan 0001 lterdagi yerto'la binosi uchun “Maroqand ko'chmas mulk invest” MCHJ vositachiligidagi 2024-yil 2-mayda o'tkazilgan to'g'ridan-to'g'ri muzokaralar natijasida tuzilgan 34/1-sonli kelishuv bayonnomasi va ushbu bayonnomaga asosida 2024-yil 2-mayda tuzilgan oldi-sotdi shartnomasining sotib oluvchidagi nusxasi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Sotuvchi “Gulobod non” MCHJ direktori S.S.Xalimov va sotib oluvchi Mirsaidov Alisher Abrorovichlar o'rtasida Samarqand shahri “Yangiariq” MFY hududida joylashgan limonad ishlab chiqarish binolari uchun “Best realtor” MCHJ Samarqand mintaqaviy filiali vositachiligidagi 2019-yil 2-avgustda o'tkazilgan to'g'ridan-to'g'ri muzokaralar natijasida tuzilgan 089-sonli kelishuv bayonnomasi va ushbu bayonnomaga asosida 2019-yil 2-avgustda tuzilgan 089-A raqamli oldi-sotdi shartnomasi hamda topshirish-qabul qilish dalolatnomasining sotib oluvchidagi nusxasi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

TOPGANGA MUKOFOT!

Samarqand viloyati ichki ishlar boshqarmasidan 2005-yilda Nurulloev Suxrob Sadulloevichga berilgan pensiya guvohnomasi Samarqand shahri hududida tushirib qoldirilgan. Ushbu hujjatni topganlardan mukofot evaziga qaytarishlarini so'raymiz.

Telefon: +99895-188-38-83. ***

O'zagroispeksiya Toyloq tumani bo'limidan 2008-yil 2-mayda Allayorov Shuxrat Umurkulovich nomiga berilgan TMG 009765 va TGT 009765 raqamli A,C,D,E,F seriyali traktorchi-mashinist guvohnomasi tushirib qoldirilgan. Ushbu guvohnomani topganlardan mukofot evaziga qaytarishlarini so'raymiz.

Telefon: +99893-345-47-01.

ISROFGARCHILIK yosh oilalarni moliyaviy qullikka yetaklayapti

To'ylarga borsak, dabdaba va isrofgarchilikka guvoh bo'laymiz. Chunki dasturxonga qo'yilgan narsalarning ko'pi bilan 50 foizi iste'mol qilinadi, xolos. Qolgani dasturxonda qolib ketadi.

Yaqinda bir kasbdoshim kelin oldi. Dasturxon to'kin-sochin. "Xarajatni kamroq qilsang, bo'lmasmidi", deb so'rasam, "restoranning tartibi shunday ekan, haliyam dasturxonning eng arzonini buyurtma qildim", dedi. Arzoni shu bo'lsa, qimmatrog'i qanday bo'lar ekan? Demak "qars" ikki qo'ldan chiqyapti. Bunday bazmlar uyushtirish to'y egasining ahvoliga ham bog'liq emas. Chunki restoran egasi tomonidan "Xohlasang shu! Bo'lmasa, o'zing bilasan" qabili-daba ishlar qilinmoqda. Biroq dabdabozlikning oqibatlaridan aziyat chekayotganlar asosan to'y egalari bo'lib qolmoqda.

Aslida, islomiy nuqtai nazardan to'yning maqsadi nikohni e'lon qilish, yosh oila uchun eldan duo olish. Bu borada Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam "Nikohda barakali to'y - eng oson va kam xarajatisidir", deganlar. Islomda isrof qat'iy man etilgan. Bu haqda Qur'oni karimning Isro surasi, 27-oyatida aytiladi: "Albatta, isrof qiluvchilar shaytonlarning birodarlaridir".

Shunga ko'ra, bugungi to'ylardagi ortiqcha taom, dabdaba isrof hisoblanadi. Isrof bor joyda baraka bo'lmaydi. Qolaversa, odamlarga o'zini ko'rsatib, "boyman" deb maqtanish riyoga olib keladi. Odatda odamlar ko'rsin, degan niyat bilan qilingan to'y ham riyo.

Ko'rinib turibdiki, islomda sodda, dabdabasiz, qarz olmasdan, o'zida bor mablag'iga qilingan to'y barakali, deyilgan. Ortiqcha sarf-xarajatlar qilib, dabdabali to'y qilaman deb, qarzga botib qolish gunoh. Ikkinchidan, bu oilaning notinchligiga olib kelishi hech gapmas. Qarzga botgan oilada xotirjamlik bo'lmay-



Foto: Sun'iy intellekt

di, xotirjam bo'lmagan oilani baxtli, deb aytilish qiyin. Bir kunlik to'yni deb, oilaning baxtiga zavol bo'lish kimga kerak?

To'ylarga dunyoviy qadriyatlar nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak ham ularni me'yorlashtirish bo'yicha bir qancha qarorlar qabul qilingan. To'y va marosimlardagi isrofgarchilikka nisbatan turli fikrlar ommaviy axborot vositalarida takror-takror aytilyapti. Bu tadbirlarning asosida ortiqcha xarajatlarni cheklash, aholini asossiz qarzga botishdan saqlash, oilalarning xotirjamligini, ijtimoiy adolatni, farovonligini va barqaror hayotni ta'minlash maqsadi mujassam. Belgilangan qoidalarga amal qilish lozimligini ham barchamiz bilamiz. Nikoh bilan bog'liq tadbirlarni, ortiqcha marosimlar - bet ochar, qiz ko'rdi, ke-

lin salom kabi o'nlab tadbirlarni qisqartirish haqida aytilayotgan bo'lsa-da, isrofgarchilik davom etmoqda. To'y marosimlarida mehmonlar sonini chegaralash masalasi ham ko'tarilgan. Ammo bunga ham amal qilinayotgani yo'q.

To'ylarni tashkil qilish amaliyotida bir qancha muammolar mavjud. Avvalo, mahallalarda to'ylarni nazorat qilish zaifligicha qolyapti. To'ylardagi as'asa, isrofgarchilik uchun hech kim javobgar bo'lmayapti. Bu borada jamoatchilik bosimining yetishmayotgani ularning masalaga befarqligini ko'rsatayapti. Muammoning ildizi an'analarni va qadriyatlarni noto'g'ri tushunish hamda moliyaviy madaniyatning pastligi bilan ham bog'liq. Dabdabozlikning oqibati yosh oilalarda uy-joyga pul qolmaslik, ta'limning kechikishi, moliyaviy qullik holatini keltirib chiqaryapti.

Mamayunus PARDAYEV,
SamISI professori.



Butunjahon shaxmat olimpiadalariga qanday tayorgarlik ko'rilyapti?

Shu yilning 10-15-sentabr kunlari Samarqand shahri imkoniyati cheklangan shaxmatchilar o'rtasidagi III Butunjahon shaxmat olimpiadasiga, 15-29-sentabr kunlari esa 46-Butunjahon shaxmat olimpiadasiga mezbonlik qiladi. Ketma-ket jahon miqyosidagi nufuzli musobaqalarni o'tkazish huquqining aynan Markaziy Osiyo mamlakatlariga, xususan, O'zbekistonga berilayotgani bejiz emas.

Buning asosiy sabablaridan biri mintaqada, ayniqsa, mamlakatimizda shaxmatchilarning yangi avlodi shakllanib, yuqori natijalar qayd etayotganidir. Buni O'zbekiston terma jamoasining so'nggi yillardagi yutuqlari yaqqol tasdiqlaydi. Xususan, 2022-yil Hindistonning Chenay shahrida o'tkazilgan 44-Butunjahon shaxmat olimpiadasida O'zbekiston terma jamoasi mamlakat tarixida ilk bor oltin medalni qo'lga kiritdi. Shuningdek, grossmeystr Nodirbek Abdusattorov jahonning eng kuchli to'rtinchi raqamli shaxmatchisiga aylandi. Samarqandlik Afruza Hamdamova ikki karra jahon chempioni sifatida e'tirof etilgan bo'lsa, Javohir Sindorov jahon kubogining eng yosh sohibi sifatida shaxmat tarixidan o'rinni oldi. Bu yutuqlar O'zbekistonda shaxmatni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar o'z samarasini berayotganidan dalolatdir.

So'nggi yillarda shaxmatning blis va rapid yo'nalishtari bo'yicha VI jahon chempionati, III "Women's Chess Championship" hamda "Grand Swiss 2025" xalqaro turnirlari Samarqandda o'tkazildi va dunyoning eng kuchli shaxmatchilari jam bo'ldi.

Shaxmatchilarimiz erishgan yutuqlar va mavjud salohiyatdan kelib chiqqan holda 46-Butunjahon olimpiadasida ham O'zbekistonda ishonib topshirildi. Davlatimiz rahbarining "2026-yil O'zbekistonda bo'lib o'tadigan 46-Butunjahon shaxmat olimpiadasiga kompleks tayyorgarlik ko'rish hamda shaxmatni ommaviy harakatga aylantirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, ayni paytda Samarqand shahrida musobaqaga puxta tayyorgarlik ko'rilmogda. Mazkur jarayonlar, amalga oshirilayotgan ishlar va rejalarda viloyat shaxmat federatsiyasi raisining birinchi o'rinbosari, xalqaro toifadagi grossmeyster Tohir Vohidovdan ma'lumot oldik.

Butunjahon shaxmat olimpiadasining Samarqandda o'tkazilishi nafaqat mamlakatimiz, balki Markaziy Osiyo shaxmat hayotida muhim voqea bo'ladi, deydi T.Vohidov. — Ayni paytda musobaqani yuqori saviyada tashkil etish, infratuzilmani zamon talablariga moslashtirish, shu bilan birga yoshlar o'rtasida shaxmatni ommalashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yaqinda respublika shaxmat federatsiyasi va viloyat hokimligi mas'ullari ishtirokida ushbu masalalar muhokama qilindi. Shaxmatni ommaviy harakatga aylantirish, yosh avlodning intellektual salohiyatini oshirish va mamlakatimizning xalqaro sport maydonidagi nufuzini yanada mustahkamlashga alohida e'tibor qaratildi.

Musobaqada ishtirok etadigan shaxmatchilarga kelsak, imkoniyati cheklangan shaxmatchilar o'rtasida o'tkaziladigan III Butunjahon shaxmat olimpiadasida viloyatimizdan besh nafar,

46-Butunjahon shaxmat olimpiadasida esa yetti nafar (Jahongir Vohidov, Afruza Hamdamova, Guldona Karimova, Marjona Malikova, Shohina Ahmedova, Ozoda Shahzodova va Ruqiya Olimova) shaxmatchi jalb qilingan. Hozirda ular terma jamoa tarkibida o'quv-mashg'ulot yig'ini va xalqaro musobaqalarda ishtirok etmoqda.

O'zbekistonning shaxmat bo'yicha birinchi chempionati 1930-yilda Samarqand shahrida o'tkazilgan. 1973-yil oxirlarida ushbu shaharda faoliyat boshlagan shaxmat maktabi esa uzoq yillar davomida respublikada yagona bo'lib kelgan. Ana shu maktabdan Shuhrat Safin, Tohir Vohidov, Jahongir Vohidov, Ibrohim Hamroqulov, Jo'rabek Hamroqulov, Aleksey Barsov, Marat Jumayev kabi grossmeysterlar yetishib chiqqan. Bu faktlarni keltirishimiz bejiz emas. Chunki keyingi yillarda Samarqandda ham shaxmatga bo'lgan qiziqish va e'tibor oshib bormogda.

Bugungi kunda viloyatdagi umumta'lim maktablari, sport muassasalari hamda shaxmat klublarida uch mingga yaqin yoshlar shaxmat bilan muntazam shug'ullanmoqda, deydi viloyat shaxmat federatsiyasi ijrochi direktori Ilhom Ergashev. — Prezidentimizning 2021-yil 14-yanvarda qabul qilingan "Shaxmatni yanada rivojlantirish va ommaviylashtirish hamda shaxmatchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, shaxmat maktablari va klublari faoliyatini yo'lga qo'yish, ta'lim muassasalarida shaxmat bo'limlari va to'garaklarini tashkil etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu maqsadda Samarqand shahri O'zbekiston ko'chasida joylashgan sobiq harbiy shifoxona o'rnida barpo etilayotgan jamoat parki hududidan shaxmat bazasi uchun 325 kvadrat metr joy ajratildi. Mazkur baza yosh shaxmatchilarni aqlash, ularning mahoratini oshirish, musobaqalar va o'quv-mashg'ulot yig'inlarini tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Kelgusida bu yerda viloyat va respublika miqyosidagi turnirlarni o'tkazish ham rejalashtirilgan.

Samarqand mezbonligida o'tkaziladigan nufuzli shaxmat musobaqalari nafaqat yurtimiz shaxmatchilarning jahon maydonidagi mavqeini yanada mustahkamlaydi, balki yosh avlodni intellektual sportga keng jalb etish, shaxmatni ommaviy harakatga aylantirish yo'lida muhim qadam bo'ladi. Samarqandning boy shaxmat an'analari, zamonaviy infratuzilma va yuqori salohiyatli mutaxassislar bilan uyg'unligi ushbu nufuzli musobaqalarni yuksak saviyada o'tkazishga to'liq zamin yaratadi. Shuningdek, O'zbekistonning xalqaro sport maydonidagi obro'-e'tiborini yanada oshirib, milliy shaxmat maktabining yangi yutuqlariga yo'l ochadi.

Zohir HASANZODA.

Allohga shukur

Shunday dedim-u, kutmagan-imdek butun hisob-kitob o'zgarib ketdi. Nima bo'lganini bilsangiz, balki siz ham ko'proq shukur qilishni odat qilasiz.

O'rtoqlarim bilan gap-gashtagimiz bor. Yaqinda navbat menga kelganda, ularning taklifi bilan bir restoranda yig'ildik.

Suhbatlashib, hazil-huzul bilan kun bo'yi mazza qilib o'tirdik.

Ketish oldidan hisob-kitob qilish uchun kassaga bordim. O'rta yoshlardagi restoran xodimi iltifot bilan:

— Uka, kamchilik bo'lmadimi? Yaxshi o'tirdinglarmi? — deb so'radi.

— Allahga shukur, rahmat aka, zo'r o'tirdik. Xizmatga rozi bo'linglar, — deb javob berdim va hisobni so'radim.

Shunda u kishi uzoq tikilib, kutilmagan gapni aytdi:

— Uka, sizdan pul olmayman.

Dastlab hayron bo'ldim. Keyin biron jo'ram yoki tanishim oldinroq to'lab ketgandir, deb o'yladim.

— Nega, aka? Tinchlikmi? Yoki biror o'rtog'im to'ladimi? — dedim.

U kishi tabassum bilan bosh chayqadi:

— Yo'q, hech kim to'lov qilmadi.

Shunchaki sizdan pul olmayman. Muomalangiz yoqdi. Yaxshi yigit ekansiz.

Men kulgancha:

— Hazillashmang, aka, — deb kartamni uzatdim.

Lekin u jiddiy ohangda javob qaytdirdi:

— Men hazillashmayapman, uka. Rostini aytsam, ancha vaqtdan beri odamlardan "Allahga shukur!" degan gapni eshitmagan edim. Men ro-ziman, keyingi kelganingizda to'larsiz, - deya kartamni qaytarib berdi...

Inson shukur qilishni odat qilsa, qalbi yorishadi, muomalasi mu-loyimlashib, hayotga yaxshi ko'z bilan boqadi. Ishida, borgan joyida ham baraka bo'ladi va asosiysi, bu ezu amali ortidan bir yaxshilik albatta keladi.

Shukur qiling, azizlar!

Fazliddin RO'ZIBOYEV.

Yangi kitob

Bahrombekni taniysizmi?

Otasi Davlatshoh aslida Rossiyada tug'ilib voyaga yetgan bo'lsa-da, Imom Buxoriyni ziyorat qilgani kelgach, Kattaqo'rg'on turg'un yashashga qaror qiladi, o'zbek qiziga uylanadi. Ana shu oilada kamolga yetgan Bahrom ma'rifat yo'lini tanlaydi. U Kattaqo'rg'on shahar bosh oqsoqoli martabasiga ko'tarilgan otasiga munosib bo'lmoq uchun avvalo, savod o'rganadi, ilm oladi, mirzolik va tarjimonlik qiladi. Tahsilni Buxoro madrasalarida takomilga yetkazib, o'zbek, fors, tojik, arab, rus va nug'ay tillarini mukammal egallaydi. Chorjo'y begining tarjimonligidan Qushbegi o'rdasi xodimligigacha, undan amir saroyi miroxo'ri va qorovulbegi lavozimiga ko'tarilgan. Keyinchalik Amir Abdulahatxonning tarjimoni va yaqin odamiga aylangan. Hatto amirning oqposhsho bilan Peterburgdagi muloqotlarida tarjimonlik qilgan.

Xullas, ana shunday inson hayoti, merosini o'rganish chog'ida paxtachilik olim va ijodkor Ismat Sanayev juda boy ma'lumotlarni to'play oldi. Yillar davomida qilgan tadqiqotlari evaziga Bahrombek Davlatshoh o'g'lining «Tarjimon» taxallusi bilan ijod qilganini aniqladi, asarlarini to'plab nashr ettirdi.

Tadqiqotchi «ZAMIN NASHR» nashriyotida chop etilgan «G'aflatdan uyg'otgan jadic» kitobida tarjimonning jadidchilik harakatidagi faoliyatini atroflicha tahlil etgan. Xususan, uning Ismoilbek Gaspirali, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat kabi ma'rifatchilar qarashlariga munosabatlarini izlab topgan. Kitobda muallifning ilm olish, ma'rifatlil bo'lish, Turkiston mustaqilligi uchun kurashish mavzusiga oid qarashlari, o'zbek tili grammatikasi, imlosi, stilistikasiga oid maqolalari berilganki, bunday bitiklar tarjimonning faoliyati naqadar jasoratli va keng ekanligini ko'rsatadi.

Bir so'z bilan aytganda, ushbu kitob orqali o'quvchilar yana bir fidoyi jadid merosidan xabardor bo'lidilar.

Dilnoza MAMIROVA,
SamDChTI dotsenti.



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 10 760 nusxada chop etildi. Buyurtma 46. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning chorshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti:

soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi:

soat 19:00

Navbatchi muharrir:

G'.HASANOV.

Navbatchi:

G.MO'MINOVA.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



9 1772010667009

Sotuvda narxi kelishilgan holda